

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHEKNT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UDK 336:658

Qo‘lyozma huquqida

Maxametov Saitdjalolxon Azamovich

Mavzu: IPO jaroyinda narxni belgilash bilan bog‘liq muammolar tahlili

70410402 — “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori”

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: prof., X.Xudoyqulov

Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “ Moliya ”
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

1 -sonli bayonnoma “ 16 ” aprel 2023 y.


Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.
(i.sh.f.)


imzo 15.05.2023
sana


Ilmiy rahbar:

Xudoyqulov.X.X.
(i.sh.f.)


imzo 15.05.2023
sana

Talaba:

Maxametov.S.A
(i.sh.f.)


imzo 15.05.2023
sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil “ 12 ” may.

№ MKF-01/2 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Ushbu dissertatsiyada IPO jaroyinda narxni belgilash bilan bog'liq muammolar tahlilining mazmun-mohiyati borasida fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki kompaniyalar o'z faoliyatlarini moliyalashtirishda turli xil manbalardan keng foydalanadilar. Ular orasida aksiyalarni ochiq tartibda ommaviy joylashtirish IPO jaroyinda narxni belgilash bilan bog'liq muammolar tahlili keng qo'llanilib kelinayotganligi va buning natijasida kompaniyalar tomonidan qisqa muddatda yirik miqdorda kapital jalb qilinayotganligini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Jahonda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda ommaviy joylashtirish amaliyotining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning turlari va mohiyati, korporativ tuzilmalar tomonidan ushbu amaliyotni tashkil etishning ahamiyati va zaruriyati singari masalalar qamrab olingan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini samarali tashkil etishga xos muammolar va qonuniyatlar, xususiylashtirish maqsadida aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari, ommaviy joylashtirishdan so'ng investorlar bilan munosabatlar tizimi samaradorligi, aksiyalarni ommaviy joylashtirishda savdo tashkilotchilari faoliyati xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar yetarlicha o'rganilmagan. Bu jihat o'z-o'zidan aksiyalarni ommaviy joylashtirish orqali xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirish, investorlar bilan munosabatlar tizimini samarali tashkil etish hamda savdo tashkilotchilari faoliyat xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan holda ommaviy joylashtirish amaliyotini samarali tashkil etish masalalari yuzasidan olib boriladigan tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: IPO, SPO, narx, aksiya, kapital, fond bozori, qimmatli qog'ozlar, moliya bozori, aksiyadorlik jamiyati.

ABSTRACT

In this thesis, the ideas about the nature of public placement of shares (IPO and SPO) are put forward.

World experience shows that companies use different sources to finance their activities. Among them, it should be noted that the public offering of shares (IPO and SPO) is widely used, and as a result, companies can attract a large amount of capital in a short period of time. A lot of scientific research work is being carried out in the world to improve the practice of public placement of shares. In these studies, issues such as the role of public placement practice in the economy, their types and nature, the importance and necessity of organizing this practice by corporate structures are highlighted. At the same time, in these studies, the problems and laws specific to the effective organization of the practice of public placement of shares, the practice of public placement of shares for the purpose of privatization, the effectiveness of the system of relations with investors after the public placement, the actual problems related to the characteristics of the activities of sales organizers for public placement of shares not sufficiently studied. This aspect by itself determines the relevance of the ongoing research on the issues of further development of the process of privatization through public placement of shares, effective organization of the system of relations with investors, effective organization of the practice of public placement. characteristics of trade organizers.

Key words: IPO, SPO, price, share, capital, stock market, securities, financial market, joint stock company.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
I BOB. KIRISH.....	10
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti.....	12
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
2.1.Kirish.....	15
2.2.Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	17
2.3 Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	24
III BOB. METODOLOGIYA.....	28
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	28
3.3 Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	29
3.4 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	29
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	29
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	29
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	31
4.1. Aktsiyalarning ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etishning nazariy asoslari zarurati	31
4.2. O‘zbekistonda aktsiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti tahlili.....	45
4.3.O‘zbekistonda aktsiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotining asosiy yo‘nalishlari.....	59

V BOB. XULOSA.....	70
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	70
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	71
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	73

I BOB. KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki kompaniyalar o'z faoliyatlarini moliyalashtirishda turli xil manbalardan keng foydalanadilar. Ular orasida aksiyalarni ochiq tartibda ommaviy joylashtirish (IPO va SPO) amaliyotlari keng qo'llanilib kelinayotganligi va buning natijasida kompaniyalar tomonidan qisqa muddatda yirik miqdorda kapital jalb qilinayotganligini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Xususan, «2021 yilda fond bozoridagi eng yirik IPO amaliyotini «Saudi Aramco» kompaniyasi muvaffaqiyatli o'tkazdi va 45,6 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilishga hamda 2020 yil «Alibaba group» kompaniyasi IPO amaliyotini muvaffaqiyatli o'tkazish natijasida 15,0 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilishga erishgan»¹. Qolaversa, IPO amaliyotini muvaffaqiyatli o'tkazish natijasida «Visa» kompaniyasi 19,0 milliard AQSh dollari miqdorida, «Facebook» kompaniyasi 18,0 milliard AQSh dollari miqdorida, «General motors» kompaniyasi 16,2 milliard AQSh dollari miqdorida, «Deutsche Telekom» kompaniyasi 15,0 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilishga erishgan.

Jahonda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda ommaviy joylashtirish amaliyotining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning turlari va mohiyati, korporativ tuzilmalar tomonidan ushbu amaliyotni tashkil etishning ahamiyati va zaruriyati singari masalalar qamrab olingan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini samarali tashkil etishga xos muammolar va qonuniyatlar, xususiylashtirish maqsadida aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari, ommaviy joylashtirishdan so'ng investorlar bilan munosabatlar tizimi samaradorligi, aksiyalarni ommaviy joylashtirishda savdo tashkilotchilari faoliyati xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar yetarlicha o'rganilmagan. Bu jihat o'z-o'zidan aksiyalarni ommaviy

¹ Lizzy Gurdus. Saudi Aramco and Alibaba made for a great 2019 in IPO market despite Uber. Left busts. December 29, 2019;